



BADIIY MATNNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Rustamova Yulduzkhon Ismatillo qizi

NavDPI Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7787592>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 30th March 2023

Online: 31th March 2023

KEY WORDS

Matn, badiiy matn, kommunikativlik, lingvistikasi.

ABSTRACT

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tilshunosligidagi matnning kommunikativ xususiyatlari hamda shu sohada faoliyat yuritgan olimlarning fikr-mulohazalariga bag'ishlangan. Muallif ikki til doirasidagi murojaatning leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Kalit so'zlar: matn, badiiy matn, kommunikativlik, matn tilshunosligi.

O'zbek tilshunosligidagi og'zaki va yozma nutq tipologiyasi, til va nutq sohasidagi tadqiqotlarni matn yo'nalishiga qo'yilgan ijobiy qadam deb hisoblab, semantik sintaksis sohasidagi tavsifiy tadqiqotlarni nazariy matn strukturasi va sistemasidagi asosiy tayanch tadqiqotlar deb hisoblaymiz.

Matn tilshunosligi sohasini asosan quyidagi yo'nalishlarda tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

1. Matn asosan borliq va uning xususiyatlari, ulardagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-didaktik va boshqa texnikaviy masalalarni aks ettiruvchi verbal imkoniyati (axborot berish va axborot olish) ega bo'lgan masalalarni o'zida mujassamlashtiradi.

2. Voqelik bilan matn o'rtasida aks ettirish jarayoni yotadi. Bu jarayon o'zida logik va emosional (matn turiga qarab) voqelikning asosiy interpretasiyasini beradi. Muallifning dunyoqarashi matnda aks etadi. Bu esa matnning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi. Matnning uslubiy-konnotativ mazmuni muallifning dunyoni his etish jarayonidagi in'ikos hisoblanib, mantiqiy va emosional dominantni tashkil etadi. Bu esa olamning lisoniy manzarasini mujassamlashtiradi. Har qanday matn axborot berish va verbal xususiyatiga ko'ra bir turli emas, bir necha turli bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda matn tipologik tasniflanganda, ularning turlarini mantiqiy-kompozision hamda emosional-stilistik xususiyatlariga qarab belgilaymiz. Nazarimizda, bu etarli emasga o'xshaydi. To'g'ri, o'zbek tilshunosligida matn tipologiyasiga oid tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, matnni tashkil etuvchi birliklar, bu birliklarning muallif tomonidan ishlatilishi haqida ma'lumotlar ilmiy asosda tavsiflangan. Lekin matn tipologiyasi tadqiqida matnning yuqoridagi aytilgan mantiqiy-kompozision va stilistik-emosional xususiyatlariga qarab tasniflanishini ilmiy jihatdan o'rgangan manbalarga qarab takomiliga etdi, deyishimiz mumkin. Lekin matnni yaratuvchi muallifning matn tuzilishidagi ishtiroki e'tiborga olinmay kelinadi. Frazeologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda (B.Yo'ldoshev)



mualliflik individualizmi haqida fikr yuritiladi. Badiiy matn yaratuvchisi (aniqrog'i, badiiy asar yaratuvchi adib (muallif)ning ko'pgina hollarda roli, o'rni e'tiborga olinmaydi. Bu masalaning mohiyatini ochishda matn tashkil etilishida psixolingvistik imkoniyatlar etarli o'rganilmaganligidan deb bilamiz. Negaki, leksik-semantik, frazeologik-konnotativ yo'nalishlardagi tadqiqotlarda shuningdek, badiiy asar interpretasiyasiga oid filologik tadqiqotlarda muallif individualizmi haqida gap borganda, umuman matn tadqiqida muallif roli unchalik ko'rinmaydi. Matnlar tadqiqi ko'rsatishicha, har qanday matn turi muallif nuqtai nazaridan ham tavsif etilishi lozimligini taqozo qiladi.

3. Matnning sintagmatik ravishda kengayishida, so'z va ibora tanlash usulida ham muallif individualizmi yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif o'z bilimi va e'tiqodi bilan to'plagan, uni o'rab turgan borliq haqidagi ma'lumotlarini bir tizim asosida matn orqali namoyon etadi. Lekin matn yaratuvchisining dunyo haqidagi ma'lumotlari qabul qiluvchi tomonidan to'liq qabul qilinishi juda mushkul masala.

4. Matnni o'qib, qabul qilish, unda muallif tomonidan berilgan axborotlar va ma'lumotlarning interpretasiyasi qabul qiluvchi tomonidan muallif darajasida bo'lmasligi ehtimol. Chunki muallif va tinglovchi (o'quvchi) muallif dunyoqarashi bilan teng bo'lmasligi mumkin. Bu ham bir qancha omillarga bog'liq. Dunyo haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va bilim olish jarayoni barcha joyda har xil. Ular didaktik jihatdan bir xil mukammallikda berilgani bilan, o'zlashtiruvchining qobiliyati har xil bo'ladi.

Matn tilshunosligining shakllanishidagi eng asosiy tayanch matnning tipologik tasnifi bo'lib, matnlarning turlariga qarab tinglovchilarning xususiyatlariga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Tinglovchi (o'quvchi), yuqorida qayd etilganidek, muallif darajasidagi bilimga ega bo'lmasligi, matn tipologik tasnifi aniq belgilanishi, mazkur matn qaysi toifadagi o'quvchilarga tavsiya etilishi ham ushbu tadqiqotda e'tiborga olindi.

L.A.Novikov kommunikasiya aktining asosiy ishtirokchilari sifatida so'zlovchi va tinglovchini e'tirof etadi. Uning fikricha, har bir til egasining miya yarim sharida til zonasi mavjud bo'lib, ob'ektiv borliqni aks ettiruvchi ma'no (1) va uni ifodalovchi belgi (2) munosabatidan tashkil topgan lisoniy birliklar va bu birliklarning birikish qoidalari haqidagi ko'nikma mavjud bo'ladi. So'zlovchi faoliyati ob'ektiv borliqni aks ettirishdan boshlanib, uni akustik signallar vositasida tinglovchiga uzatish bilan yakunlanadi. Tinglovchi faoliyati esa, aksincha, akustik signallarni qabul qilish bilan boshlanib, bu signalni ob'ektiv borliq uzellariga bog'lash bilan yakunlanadi. Har ikki sub'ekt ob'ektiv borliq haqida umumiy bilimga ega bo'ladi. Birinchisi bevosita ob'ektiv olam uzvlarini sezgi a'zolari bilan ongda aks ettirish orqali, ikkinchisi esa tovush signallari yordamida ifodalangan ma'no orqali olam haqida umumiy bilimga ega bo'ladi.

Tilning har bir sathi uchun bittadan til birligi xos. Masalan, fonologik sath uchun fonema, leksik sath uchun leksema, morfemik sath uchun morfema, morfologik sath uchun so'z yoki so'zshakl va b. Lekin sintaktik sath o'ziga xos xususiyatga ega. U bir necha birliklar: so'z birikmasi, gap, matn singari birliklar bilan ish ko'radi. Shunga muvofiq, sintaksisni ham so'z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, matn sintaksisi singari turlarga bo'linish an'anaga aylandi. Eng muhimi, bugungi kunda matn lisoniy birlik sifatida ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi va til tizimida qonuniy maqomi va mavqeiga ega bo'ldi. Bunga tilning pog'onaviy tuzilishi va pog'onaviy birliklarning kompozision (integrativ) tuzilishi imkoniyat



yaratdi. So'z morfemalardan tashkil topgani, morfema so'zning ichida yashagani kabi, gap so'zlardan tashkil topadi, so'z esa gapning ichida yashaydi. Xuddi shuningdek, matn gaplarning sintagmatik munosabatidan tashkil topadi. Gap esa matn ichida yashaydi. Bitta so'z o'zidan bir daraja yuqoriga ko'tarilib, yangi sifatga — gapga aylangani kabi, bitta gap ham makromatn tarkibida bitta matn vazifasini bajarishi mumkin.

Matnning tilning ierarxik tuzilishida eng yuqori sath birligi sifatida e'tirof etilishi uning til — nutq dixotomiyasidagi o'rnini belgilash muammosini o'rta qo'ydi. Mashhur rus tilshunosi L.Barxudarov ham matnga til — nutq dixotomiyasi asosida yondashar ekan, uning ham tilga va nutqqa xos ekanligini ta'kidlaydi. Matn eng yuqori sathga doir abstrakt til birligi ekanligini B.Maslov va I.Galiperinlar ham qayd etadilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Matn turlari orqali informasiyalarni uzatishda bir qancha usul va vositalar mavjudligi ta'kidlangan. Masalan, oddiy uzatish usulida kitob va boshqa bosma matn turlaridan foydalaniladi. Birinchi guruh tizimiga quyidagi matnni uzatish jarayonlari kiradi. Bular ommaviy axborot vositalari: gazeta, matbuot, radio, televidenie va internetdagi ijtimoiy tarmoqlar. Bunda berilayotgan axborot tizimi resipientlarga masofa belgilanmasdan uzatiladi. Bu auditoriyada o'qilayotgan ma'ruzadan farq qiladi. Ulardagi axborot uzatish, matn mazmunini etkazish tamoyili jihatdan o'xshashlik, umumiylik bo'lsa ham, axborotni uzatishda differensiasiya holatlari mavjud bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali resipientga ma'lumot uzatishda resipientdan hech qanday javob qabul qilinmaydi, balki ular axborotlarni vositalar orqali qanday uzatilsa, shunday qabul qilinadi. Auditoriyada ma'ruza o'qiyotgan ma'ruzachiga esa resipientlardan javob reaksiyasi bo'lishi mumkin. Bundagi axborot uzatish bilan ham, ommaviy axborot uzatish vositalari orqali berilgan reaksiyalar passiv bo'ladi. Resipientdagi javob reaksiyasi axborot jo'natuvchiga, gazeta, matbuot muxbiriga bir paytning o'zida etmasligi mumkin.

Axborot uzatishning ikkinchi tizimi — bu shaxslararo muloqot qilish jarayonidir. Bir marotabalik matn turidagi dialoglar ham shaxslararo munosabat yoki axborot uzatish tizimining ikkinchi turini tashkil etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxslararo muloqotda texnik vositalardan ham foydalanish imkoniyati bo'ladi. Bular — telefon, telegraf, pochta aloqasining boshqa turlaridir. Ta'kidlash joizki, hozirgi globallashuv vaqtida, ayniqsa pandemiya sharoitida kundalik hayotimizda axborot uzatishda internetning muhim o'rin tutayotgani, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning insonlar orasidagi asosiy axborot almashinuvi manbasiga aylangani hammaga ma'lum. Ayniqsa, keyingi paytlarda virtual olamda OAVga qaraganda ijtimoiy tarmoqlarning hukumat miqyosida nufuzi ortib, davlat boshqaruviga ta'siri kuchaymoqda. Ammo foydalanuvchilar saviyasi, ularning savodxonligini ta'minlash uchun ijtimoiy tarmoqlar matnini ilmiy tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Verbal ravishda aloqa-aralashuv munosabatlarini tashkil etishda informasiyalar matn turi sifatida yuboriladi. Demak, muallif yaratgan matnni resipientga etkazishdagi tizim va strukturani quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin.

Muallif + matn + resipient (qabul qiluvchi).

fikrlash modeli va matn o'rtasida muayyan bog'liqlik bo'lishi shartligi tahlil qilingan. Nutqiy fikrlash faoliyat turi kommunikasiya jarayonida etakchi o'rinni egallaydi. Fikrlash



modeli bilan matn o'rtasidagi bog'liqlikni shartli ravishda S — modeli deb belgilaymiz. Har qanday berilgan matn ob'ektiv borliqning verbal (nutqiy) in'ikosi hisoblanadi.

Har qanday til elementi mantiqiy-kognitiv kategoriyalar orqali matnda reallashadi. Masalan, ob'ektiv ravishda mavjud olma predmeti til elementlari orqali mantiqiy kategoriya, kognitiv xususiyatga ega bo'ladi. Birinchi navbatda olma atamasini matndan tashqari holatda verbal tavsiflasak, u signifikativ ma'no komponenti orqali reallashadi. Lekin u hech qanday kognitiv-mantiqiy real kategoriyaga ega bo'lmaydi. Olma atamasi er yuzida minglab yoki millionlab formal-grammatik kategoriyaga ega bo'lgan olmalar turkumini anglatadi. Agarda biz Bugun men bozordan ikki kilogramm olma sotib oldim degan jumlaning nutq situatsiyasida reallashtirsak, bu orqali muallif + resipient reaksiyasi jarayonida nutq faoliyatining yuqorida qayd etgan ikki operatsiyasini amalga oshirgan bo'lamiz.

Og'zaki matnlar monolog, dialog va polilog turlariga ajratiladi. Monolog — bir muallif tomonidan bayon etiladigan og'zaki matn turi bo'lib, nutq o'stirish jarayonida etakchi o'ringa ega. Monologlar tahlili yozma nutq jarayonida ham amalga oshishi haqida bir qancha tadqiqot ishlari bajarilgan. Og'zaki matn turlaridan biri bu polilogdir. Poliloglar asosan ikki shaxsning suhbat bo'lmasdan, balki bir necha shaxsning suhbat yoki bahsidan iborat ko'pnutqlilik hisoblanadi.

Og'zaki matnlarning monolog, dialog, polilog turlari nutqda bir marta sodir bo'lib, odatda, qaytarilmaydi, natijada yo'q bo'lib ketadi. Ikkinchisi — ovozarlar qaytarilishi mumkin, lekin tinglovchi odatda uni faqat bir marta qabul qiladi; ovoza matnlarning umri qisqa bo'ladi. Uchinchisiga — foliklor matnlari kiritilib, ular doimo tildan-tilga o'tib yuradi, tinglovchilar ularni qayta-qayta eshitishga tayyor, shuning uchun ularning umri boqiydir.

References:

1. Abdurahmonov G', Mamajonov N. O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: O'zbekiston, 1985.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. –Toshkent: Fan, 1981.
3. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. –Toshkent, 1997.
4. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –Toshkent, 1983.
5. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. –Toshkent, 1998.
6. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. –Toshkent: O'zME, 2009.
7. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. –M.: Nauka, 1981.
8. Yo'ldoshev B. Matnning o'rganishning lingvostatistik metodlari. –Samarqand, 2008.